

Navoiy davlat pedagogika instituti
O`zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs “B” guruh
talabasi Axtamova Dilnozaning “Muhammad Yusuf she’riyatining
lingvistik xususiyatlari”
mavzusida yozgan referati.

Ilmiy rahbar:

N. Sadinova.

Mavzu: Muhammad Yusuf she'riyatining lingvistik xususiyatlari.

Reja:

1. Muhammad Yusuf she'rlarida takrorning qo'llanishi.
2. Shoir she'riyatida inversiyaning o'rni.
3. Muhammad Yusuf she'rlarida sintaktik parallelizm.

Ma'lumki, badiiy matnning ifodaliligini ta'minlashda takrorlar muhim ahamiyatga ega. Takrorlar ma'noni kuchaytirish, intensivlik va emotsionallikni oshirish uchun xizmat qiladi. Takrorlar turlicha bo'ladi : gap takrori, gap bo'laklari takrori, yordamchi so'zlar takrori , modal so'zlar takrori va hokazo. ¹Jumladan, xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodida ham takrorlarning o'ziga xos shakllarini kuzatish mumkin. Shoirning "Onaizor" she'rida gap takrori qo'llangan bo'lib, bu takror misrada ifodalangan mazmunga o'quvchi e'tiborini tortishga, misrada ifodalangan ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Yer-u ko'kni titratib zor-zor dunyo-

Onam yig'lar ,onam yig'lar, onam u.

Misralarda takror qo'llangan "onam yig'lar, onam yig'lar" jumlasini misrani shoir ichki kechinmasining kuchli ifodasi sifatida shakllantirgan.

Shoir ijodida ko'p uchraydigan shakllardan biri takroriy so'zlarning qo'llanishi bo'lib, so'zlarning bu shaklda qo'llanishi ma'no kuchaytirish, ko'plik, jamlik ma'nolarini ifodalashda o'ziga xos o'rin tutgan:

O'ksib-o'ksib turganingda, o'zim borib

Peshonangdan o'paydesam, peshonang yo'q.

Misrada qo'llangan "o'ksib-o'ksib" so'zi ma'noni kuchaytirish va harakat bajaruvchisining holatini kitobxon ko'z o'ngida yaqqolroq gavdalantirish uchun qo'llangan.

Shuningdek,shoir she'rlarida ma'no kuchaytirishga xizmat qilgan takrorlardan ko'plab foydalanganligini kuzatishimiz mumkin:

Tasma – tasma tarixning

Tugamas aytgan bilan.

¹ A.Shomaqsudov , I. Rasulov vab boshqalar. O'zbektilistilistikasi. T. "Fan" 1984 "B". 248.

Yoki,

O`ksimasin zardob to`la ko`ngilchangiz

*Daryo-daryo ko`zyoshim bor cho`milsangiz.*²

Muhammad Yusuf ijodida takroriy so`zlarning muhim o`rin tutganligini uning ba`zi she`rlarida boshdan oyoq takroriy so`zlarni qo`llaganligida ham ko`rish mumkin . Jumladan, shoirning “Orol dengiz” she`rida shu holatni kuzatish mumkin:shuholatnikuzatishmumkin:

Sensiz menga tor kulbadek bor jahon

Ko`z o`ngimda, ko`z o`ngimda berar jon³

Kelinchagim, *kulib-kulib* ketdingizmi,

Yuragimni *tilib-tilib* ketdingizmi.

Yolg`izlikdanelarbo`lsam,bo`ldim-kumen

Siz murodga *yetdingizmi –yetdingizmi?*⁴

Misralarda takroriy so`zlar orqali ifodalangan ekspressiv bo`yoqdorlik – ta`kid, iltijo, zorlanish va so`roq mazmunlarining uyg`unlashib ketganligi shoir his-tuyg`ularining jonli ifodalanganligi uchun asos bo`lgan. Umuman , takrorlar Muhammad Yusuf ijodini bezovchi, emotsional-ekspressivlik bo`yoqdorlikni oshiruvchi vosita sanaladi.

² Muhammad Yusuf “Saylanma” T. “Sharq” 2014. 194-bet

³ Muhammad Yusuf “Xalqbo`l, elim” T. “Sharq” 2007. 129-bet

⁴ Muhammad Yusuf “Xalqbo`l, elim” T. “Sharq” 2007. 68-bet

She'riyat ko`ngil kechinmalarini aks ettiruvchi nutq bo`lsa, holat va kechinmani hayajonli , qaynoq ifodalashning bosh vositasi esa inversiyadir. Shuning uchun ijodkor o`z tuyg`ularini yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi gap tuzishga va undagi bo`laklarning joylashish tartibiga alohida e`tibor qaratadilar. Bunda eng muhimi , ijodkor o`zi ifodalamoqchi bo`lgan fikr va tuyg`usi bo`lgan o`ziga xos ohangiga qarab , har bir gap bo`lagining o`rni hamda tartibini belgilab oladi. Sintaktik inversiya she`rdagi ana shu ohang tovlanishlarini butun to`laligicha yetkazishga yordam beradi.⁵

Shuningdek, inversiya shoirning uslubi , uning qalbidagi tug`yonnig ifoda yo`sini ketma- ketligi va tadrijiy o`sishini ifodalashi bilan ajralib turadi.

Bildim, ilhom izlab shom- u sahardan,

She`r azobi yomon ekan zahardan.

Yuragingda bo`lmasa gar shoirlik,

Naf yo`q ekan hech qanaqa shahardan.

(“Ketib qoldim” 90-bet.)

Shoirning yuqoridagi to`rtligi grammatik jihatdan bitta sodda gap, bitta qo`shma gapdan tashkil topgan. Ular nasrda quyidagi shaklga ega bo`ladi:

Shom-u sahardan ilhom izlab she`r azobi zahardan ham yomon ekanligini bildim. Agar yuragingda shoirlik bo`lmasa, har qanaqa shahardan foyda yo`q.

Bunday paytda ritmik – melodik ifoda buziladi. Shuning uchun misralarda inversiya qo`llangan. Shoirning fikr va o`y kechinmalari poetik matn talabiga bo`yuindirilgan. Ana shu fikr va kechinmani shakllantirish uchun gapning kesimi ikkinchi va to`rtinchi misra boshida keltirilgan. Misralarda inversiyaning bu tartibda keltirilishi nutqni yanada ta`sirli, chiroyli va ta`kidni kuchaytirishga imkon bergan. Kitobxonning diqqatini o`ziga tortgan.

⁵ N. Murodova . Professor o`qituvchi va talabalarning XXVII ilmiy amaliy konferensiya materiallari to`plami. III qism . Navoiy 2012. 82- bet.

Muhammad Yusuf ijodida sintaktik parallelizmning o`z o`rni bor. Sintaktik parallelizm ohangdorlikni ta`minlashga xizmat qilishi bilan takrorga o`xshab ketadi, lekin bu hodisalarni farqlash lozim.

Sintaktik parallelizm- bunda strukturasi bir xil bo`lgan ikki yoki undan ortiq gaplar ketma-ket keladi. Bu gaplarda so`zlarning shakllari bir xil bo`lib, simmetriya vujudga keltiriladi va ifodalilik kuchayadi. Shoir Muhammad Yusuf ijodida ham bunaqangi misollarni ko`plab uchratishimiz mumkin:

Siz o`sha ko`zimning kiftida yurgan ,

Siz o`sha ko`nglimga ko`ngli in qurgan

To`kilay deb tilim uchida turgan

She`rimsiz, bir umr bitmas ohimsiz

(24-bet)

Yelkadan sirg`alib kunduzgi tashvish

Yelkadan sirg`alib ko`rpalari-da`

Supachada uxlar erkak va ayol

Yog`och beshik o`rtalarida.

(“Yog`och beshik” 85-bet)

Umuman, shoir she`riyatida qo`llanilgan yuqoridagi vositalar Muhammad Yusuf she`rlarini ekspressiv bo`yoqdorligini oshirishga, mazmunan go`zallashtirishga xizmat qiladi.